AZIM HAJIYEV'S VIEWS ON THE ARRANGEMENT OF TERMS

AZIM HOJIYEVNING TERMINLARNI TARTIBGA SOLISH HAQIDAGI QARASHLARI

Mamatqulov Azizbek Rustamovich*

* **Guliston davlat universiteti (O‘zbekiston)**

Abstract: In this article, academician Azim Hajiyev's Uzbek terminology system discusses the criteria for terms selection and arrangement of terms. The socio-political changes that took place in the society in the first years of independence and their reflection in terms are discussed. Socio-political terms serve as illustrative material of the article. The article reflects Azim Hajiyev's analysis of the use of terms in Uzbek linguistics and his scientific views on whether or not the used terms match the nature of the Uzbek language and the original essence of the term. In particular, it is possible to get acquainted with the opinions of the scientist about the observation of some errors and shortcomings in the use of linguistic terms in scientific literature.

Key words: term, term, word, idiom, dictionary, lexicon, state language.

Kirish. “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi va uning o‘zbek terminologiyasi rivojiga ta’siri o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlandi. 1989 yil 21 oktyabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ushbu qonunning 1-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deb belgilab qo‘yildi. Millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilash, xalqlarning milliy o‘zligini anglashi milliy tillarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Ushbu Qonun o‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasining butun hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi berildi. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etilishi, davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlashi, shu jumladan, uni hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga rivojlantirishi belgilab qo‘yildi, yangi ilmiy asoslangan atamalar esa jamoatchilik muhokamasidan keyin Oliy Majlis palatalari tegishli qo‘mitalarining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etilishi qonunlashtirildi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlashtirilgan til shakli bo‘lib, uning leksik, fonetik va grammatik tizimi tilshunoslar tomonidan belgilangan. O‘zbek tili mamlakatimiz ta’lim muassasalarida XX asr boshlaridan o‘qitib kelinadi. Bu esa, albatta, o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Endilikdagi asosiy vazifa bu borada yo‘l qo‘yilgan xatolarni, o‘zbek tilining taraqqiyotiga to‘siq bo‘lgan va bo‘ladigan omillarni belgilash, ularni bartaraf etib, o‘zbek adabiy tilining har taraflama rivojlanish imkoniyatlarini, yo‘llarini aniqlab, uni haqiqiy ma’nodagi milliy adabiy til darajasiga ko‘tarilishini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni belgilash va shu asosida ish olib borishdan iboratdir. Bu ish juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir [5, 5].

Sobiq sho‘rolar davrining “...so‘nggi yillarigacha, boshqa fanlar qatori, ona tilining o‘qitilishiga ham etarli e’tibor berilmadi”. Maktab ona tili darsliklari ham bundan mustasno emas. Mustaqillikkacha ham ona tili darsliklarining talabga javob bermasligi haqida fikrlar bildirila boshlangan edi. “O‘qituvchilar gazetasi”ning 1987 yil 18-martdagi sonida A.Hojiyevning “Darsliklar talab darajasida bo‘lsin” maqolasi ayni muammoga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘sha davr darsliklariga to‘g‘ri va xolis baho berilgan edi. Tilshunoslik terminologiyasidagi muammolar ham etarli bo‘lib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ona tili darsliklarini takomillashtirish, ularga ilm-fan yutuqlarini tatbiq etish kun tartibidagi asosiy masala etib belgilandi [2, 99].

Ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga o‘tishda va undan keyin jamiyat hayotida katta o‘zgarishlar yuz beradi. Bunday o‘zgarishlar tilda ham aks etadi, chunki til jamiyat taraqqiyoti bilan birga

rivojlanadi. Shunisi ham borki, jamiyat qanchalik taraqqiy etmasin, tildagi narsa-hodisalar nomi ma'lum muddatgacha o'zgarishsiz saqlanadi. Tushunchalar yo'qolishi yoki boshqa nomda atalishi bilan oldingi so'zlar ham yo'qola boshlaydi. Shuning uchun ham tilda birdaniga uzilishlar ro'y bermaydi.

Shu ma'noda mustaqillikning dastlabki yillari va hozirgi davr darsliklarida ham yuqorida aytilgan yangilanish va eskirishlarning ma'lum muddat saqlanishini kuzatish mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Keyingi davr, ya'ni 2010–2018 yillarda yaratilgan adabiyotlarda terminlar lisoniy tushunchalarni to'liq anglata olishiga, ularning imkon qadar o'zbekcha bo'lishiga e'tibor bergan holda o'zgartirildi. Ayrim terminlar iste'moldan chiqarildi, ayrimlari almashtirildi. Masalan, *avtor gapi* terminidagi *avtor*, *nutq organlari* terminidagi *organ* hamda *alfavit* termini o'zbek tilida avvaldan bor bo'lgan *muallif*, *a'zo* va *alifbo* so'zlari bilan almashtirildi, bu bilan ham "Davlat tili haqida"gi qonun talablariga rioya qilindi, ham tilimizning ichki imkoniyatlari kengaytirildi. *O'zak*, *o'zakdosh*, *negiz* kabi terminlar tilshunoslikning keyingi taraqqiyoti natijasiga muvofiq, termin sifatida olinmadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, akademik A.Hojiyevning qarashlari asosida takomillashtirildi. *O'zak* tushunchasi o'rniga *asos* tushunchasi tatbiq qilindi, *asos* va *so'z yasalish asosi* tushunchalari kiritildi. Masalan, *terim* so'zining asosi *ter* fe'li bo'lsa, *terimchi* so'zining yasalish asosi *terim* ekanligi, *ter* fe'li *terimchi* so'ziga asos bo'la olmasligi degan qoida berildi. Buning natijasida *o'zakdosh so'zlar* termini ham iste'moldan chiqdi.

O'zbek tiliga bo'lgan taziyqning salbiy oqibatlari uning leksikasida, yana ham aniqrog'i, uning terminologiyasida sezilarli darajada namoyon bo'ldi [5, 6].

Faqatgina bu borada qilingan va qilinayotgan ikki narsani alohida qayd etishni lozim topamiz:

1) yangi paydo bo'layotgan *narsani, u haqdagi tushunchani atashda o'zbek tilining o'z imkoniyatlariga etibor* bermay (undan foydalanmay), shu narsani atovchi (bildiruvchi) rus tilidagi yoki boshqa tildagi so'zni qabul qilaverishga deyarli chek qo'yildi;

2) o'zbek tilining imkoniyatlariga etibor bermay, undan foydalanmay, rus tilidan qabul qilinavergan so'zlarni, narsa-hodisani ruscha so'z darajasida, hatto, undan aniqroq, tushunarliroq ifodalaydigan o'zbek tilidagi so'zlar bilan almashtirishga o'tildi va bu jarayon davom etmoqda.

Rus tilidan o'zlashgan ma'lum so'z (termin)larni o'zbek tilining o'z so'zlari bilan almashtirish ishi shunchaki rus tilidan olingan so'zlarni o'zbek tilidan quvib chiqarish emas. Asosiy maqsad o'zbek tilining sofligini saqlash, o'zbek tili lug'at tarkibini, birinchi navbatda, shu tilning o'z imkoniyatlari asosida boyitish, bu bilan o'zbek tilini xalqqa yaqinlashtirish, uning shu tilda so'zlashuvchilar uchun tushnarli bo'lishini ta'minlashdir [5, 8]. Shuning uchun ham o'zbek tilining barcha sohalarida keng qamrovli terminologik tadqiqot ishlarini olib borish orqali soha terminlarini tartibga solish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

A.Hojiyev ichki va tashqi imkoniyatni tushunish va talqin etishda ham noto'g'ri qarashlar, xato yo'l tutish hollari borligini ta'kidlab o'tadi. Bu narsa ham so'z qo'llash (so'z tanlash)da xatoliklarning, chalkashliklarning ro'y berishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim tilshunoslar ichki imkoniyat (ichki manba) deganda faqat asl o'zbekcha yoki turkiycha so'zlarni tushunadilar. Vaholanki, qaysi tildan olinganidan qat'i nazar, shu tilga singib ketgan uning o'z materiali (o'z mulki) hisoblanadi. Masalan, *e'lon*, *shfokor*, *gazeta* so'zlari arab, fors-tojik va rus tillaridan olinganligidan qat'i nazar, hozirda o'zbek tilining o'z so'zlari, o'zbek tilining mulki hisoblanadi. Bu so'zlarni o'zga til so'zi (o'zga til materiali) hisoblash oqibatida ularni *bildirish*, *emchi*, *ro'znoma* so'zlari bilan almashtirish tavsiya etilgan edi. Lekin u ilmiy va amaliy jihatdan asossiz bo'lgani uchun amalga oshmadi [5, 10]. Olimning yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, sababsiz, ehtiyoj bo'lmasa, rus tilidan (jumladan boshqa tildan ham) o'zlashgan so'zlarni boshqa so'z bilan almashtirish, iste'moldan chiqarish o'zbek tili uchun foyda keltirmasligi ayon bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan o'zlashma so'zlar o'zbek tiliga o'zlashib, so'z yasash asosiga aylanib ulgaurgan: *gazetaxon*, *gazetachi*.

Lug'at tarkibining rivojlanishi jarayonida so'z yaratish, so'z tanlashda, birinchidan, tilning ichki va tashqi imkoniyatini aniq farqlash, to'g'ri tushunish, ikkinchidan, tilning taraqqiyot qonuniyatlarida, uning talablariga amal qilgan holda ish ko'rish kerak bo'ladi. Uchichidan, til lug'at tarkibining, ayniqsa, terminologiyasining rivojlanishida tashqi manba ham muhim rol o'ynashini hamma vaqt e'tiborda tutish shart.

Yangi paydo bo'ladigan narsa-hodsalarni, ular haqidagi tushunchalarni ifodalash uchun o'z tildagi so'zlar ishga solinadi yoki shu tildagi vositalar asosida yangi so'zlar yaratiladi. Ana shunday imkoniyatlar bo'lmagan taqdirda yangi narsani atovchi o'zga tildagi so'zning o'zi qabul qilinadi [5, 11]. Olimning bu fikrlari isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Albatta, biron tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilining o'z imkoniyati bo'lgan holda undan foydalanmay, o'zga tilga oid so'z qabul qilish ijobiy holat sanalmaydi. Aks holda o'zga tildan o'zlashgan terminni zo'rma-zo'raki o'zbekchalashtirish o'zini

oqlamaydi. Shu masalada mutaxassislarning faolligiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu bilan birga mutaxassislar ehtiyotkorlik, yuksak bilim, mahorat talab etiladi.

Rus tilidan o‘tgan so‘z (termin)larning ko‘pchiligi til taraqqiyoti talablariga mos holda, o‘zbek tilida ularning o‘rnini bosa oladigan so‘z bo‘lmagani uchun, shunday so‘zni yasash ham mumkin bo‘lmagan hollardagina qabul qilingan. Shuning uchun ular o‘zbek tilidan mustahkam o‘rin olib shu tilning o‘z so‘zlariga aylanib ketgan. Masalan: *yadro, lampochka, elektr, radio, fizika* kabi minglab so‘zlar shular jumlasidandir. Binobarin, bunday so‘zlarni boshqa so‘zlar bilan almashtirishga, o‘zbek tilidan chiqarishga hech qanday asos va ehtiyoj yo‘q. Bunday urinish o‘zbek tiliga, uning iste’molchisiga zarardan boshqa narsa keltirmaydi. Masalan, *gazeta, jurnal, institut, fakultet, stadion* so‘zlarini *ro‘znoma, majalla, oliygoh, kulliyot, o‘yingoh* so‘zlari bilan almashtirishga urinish bunga dalil bo‘la oladi va bu fakt 20-30-yillarda *samovar, traktor* so‘zlarini “o‘ziqaynar”, “o‘tomoch” bilan almashtirish yo‘lidagi asossiz bo‘lgan va samarasiz yakunlangan urinishni eslatadi [5, 13]. A.Hojiyev qayd etgan yuqoridagi fikrlari, afsuski hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Hukmron mafkuraning taziyqi ostida o‘zlashtirilgan so‘zlar ham mavjudki, ular o‘zbek tilining o‘zida mavjud bo‘lib, o‘zlashtirmasa ham bo‘ladi. A.Hojiyev buning sabablarini quyidagicha guruhlaydi:

1. Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga oid tushunchani aniq ifodalovchi so‘z o‘zbek tilining o‘zida bo‘lgani, qo‘llanib turgani holda ular hech qanday asossiz, ehtiyojsiz, faqat sub’ektiv sabab bilan rus tilidagi so‘zlarga almashtirilgan bo‘lsa, bunday so‘zlar o‘zbek tilida o‘z o‘rniga qayta tiklanishi kerak. Shu jihatdan *ziyoli, inqilob, bekat, jamoa, muharrir, nasr, nazm, risola, matn, muallif* kabi juda ko‘p so‘zlarning qayta iste’molga kiritilishini faqat qo‘llab-quvvatlash kerak.

2. Ma’lum bir tushunchani aniq va to‘g‘ri ifodalay oladigan so‘z o‘zbek tilining o‘zida bo‘lgani holda yoki shunday so‘zni o‘zbek tilining materiallari yordamida hosil qilish mumkin bo‘lgan holda (bunga etibor bermay, uni hisobga olmay yoki sezmay) rus tilidagi so‘z qabul qilinavergan bo‘lsa, o‘zbek tilining o‘z imkoniyati ishga solinishi va hosil qilingan yangi so‘z rus tilidan kirgan so‘z bilan almashtirilishi kerak. Shu nuqtai nazardan *sovet, faktor, protsess, sostav, soyuz* so‘zlarini *kengash, omil, jarayon, tarkib, uyushma* so‘zlari bilan almashtirishga e’tiroz bo‘lishi mumkin emas.

3. Rus tilidan o‘tgan so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirish yoki almashtirmaslikni hal etishda bu so‘zning dunyo tillarida qo‘llanish-qo‘llanmaslik tomoniga ham e’tibor berish kerak bo‘ladi. Bunda dunyodagi tillar bilan yaqinlashish, ular bilan bir xillikka intilish asosiy yo‘ldir. Ayniqsa, terminologiyada shunday yo‘l tutilishiga jiddiy e’tibor berish talab etiladi. Shu jihatdan, *respublika* so‘zini *jumhuriyat* so‘zi bilan, *aeroport* so‘zini *tayyoragoh* so‘zi bilan, *demokratiya*ni *xalqchil* so‘zi bilan almashtirishga qo‘shilmaslik, *respublika, aeroport, demokratiya* so‘zlarini o‘z o‘rnida termin sifatida qoldirish to‘g‘ri bo‘ladi [5, 14-15]. Buni vaqt isbotladi. Hozir ham amalda shu terminlar faol qo‘llanmoqda, ommalashmagan o‘zbekcha muqobillari qo‘llanishiga chek qo‘yildi.

4. Rus tilidan o‘tgan biror so‘zni o‘zbek tilidagi so‘z bilan almashtirish yoki almashtirmaslik masalasida so‘zning bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli bo‘lishiga ham e’tibor berish kerak bo‘ladi. Agar rus tilidan o‘tgan so‘z ko‘p ma’noli bo‘lsa va uning barcha ma’nolarini bekam-ko‘st ifodalay oladigan so‘z o‘zbek tilidan topilsa, o‘zlashma so‘z shu so‘z bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, *inqilob* so‘zi *revolyutsiya* so‘zining barcha ma’nolarini bekam-ko‘st ifodalay olgani uchun uni *revolyutsiya* so‘zi bilan almashtirish (*inqilob* so‘zini qayta iste’molga kiritish) asosli [5, 15-16] bo‘ladi va bunga hech qanday e’tiroz bildirilmadi.

Olimning *programma* so‘zi o‘rnida (uning ko‘pgina ma’nosida) *dastur* so‘zi qo‘llanyapti. Masalan, eshittirishlar dasturi, konferentsiyaning dasturi va boshqalar. Lekin *programma dlya elektronnoy mashino‘* birikmasidagi *programma* so‘zining ma’nosiga *dastur* so‘zi ega emas. Xuddi shu ma’nodagi *programma* so‘zidan yasalgan ruscha *programmist, programmirovat* so‘zlari o‘rinida o‘zbek tilida, *programmist, programmalashtirish* so‘zlari qo‘llanadi. Demak, *programma* so‘zini *dastur* so‘zi bilan butunlay almashtirish, ya’ni *programma* so‘zini butunlay iste’moldan chiqarish maqbul emas. *Plan* so‘zini *reja* so‘zi bilan almashtirish masalasida ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin [5, 16-17]. Bizning fikrimizcha olimning bu fikriga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi bugungi kunda *reja* so‘zi faol qo‘llanishda bo‘lib, *plan* so‘zi iste’moliga to‘liq chek qo‘ydi.

Shu narsa ayonki, terminologiyada variantlilik ijobiy hodisa hisoblanmaydi. Variantlilikni davom ettiravermay, ulardan birini, ya’ni terminga qo‘yiladigan talablarga har jihatdan javob beradigan so‘zni tanlash, shunisini termin sifatida tavsiya etish va qabul qilish kerak. Olimning bu fikrlari hozirda izohtalab qilmaydigan aksiomaga aylandi. Termin va atama so‘zlarining qo‘llanishida ham A.Hojievning asosli fikrlari chalkashliklarga chek qo‘yadi. Termin va atama bir hodisa emasligini takidlaydi. Ularni befarq, biri o‘rnida ikkichisini qo‘llash mumkin emasligini ilmiy asoslab bergan.

Birinchidan, ...atama umuman “narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so‘z” degan ma’noga ega. Masalan, *olma, katta, kelmoq* so‘zlari narsa, belgi va harakatning atovchi (atamasi) hisoblanadi. Termin so‘ziga nisbatan bunday deya olmaymiz. Ikkinchidan, dunyoning deyarli barcha tillarida, jumladan, turkiy tillarda terminga xos yuqorida keltirilgan

ma'noda shu so'z (*termin* so'zi) qo'llanadi. Uchinchidan, *termin* so'zi *atama* so'ziga almashtirilar ekan, bu so'zdan yasalgan terminologik, terminologiya so'zlaridan mahrum bo'linadi. Bu so'zlarning ma'nosini esa atama so'zi bilan yoki undan biron-bir so'z yasab ifodalash mumkin emas. Ana shu keltirilgan uch dalilning o'ziyoq *termin* so'zini *atama* so'ziga almashtirishning manfaatli emasligini ko'rsatadi.

Atama so'zi, yuqorida aytganimizdek, umuman nom ma'nosini bildiradi, binobarin, uning ma'nosi keng. *Atamashunoslik* so'zi ham *terminologiya* so'ziga nisbatan keng ma'noga ega [5, 24].

1981-yil nashr etilgan ikki tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati" esa o'zbek xalqi madaniyati tarixida katta voqea bo'ldi. Bu lug'atlar kamchiliklardan xoli emas, albatta. Lekin ularda o'zbek tilidagi so'zlarning, jumladan terminlarning ma'nosi (ma'nolari) va boshqa xususiyatlari asosan to'g'ri qayd etilgan [5, 41].

A'zim Hojiyevning terminlarni tanlash mezonlari haqidagi ilmiy qarashlari 2006 yilda yaratilgan 5 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni [3, 560] yaratishda qo'l keldi va mayoq vazifasini bajardi.

1981 yil nashr etilgan ikki tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *dastur* va *programma* so'zlari berilgan, ma'nolari aniq qayd etilib misollar bilan tasdiqlangan [4, 715]. Bu lug'atda *dastur* va *programma* so'zlarining sinonimlari (ma'nodosh ekani) ko'rsatilmagan.

Dastur va *programma* so'zining barcha ma'nolariga ega emasligi yuqorida aytildi. Shuningdek bu so'z rus tilidagi yana boshqa ko'pgina so'zlarning ma'nosini ifodalash imkoniga ega emas. Lug'atlardan va terminologiyaga oid ilmiy adabiyotlardan foydalanib ish ko'rilsa, dastur so'zining qo'llanishida, uning programma so'zi bilan almashtirish masalasidagi xatoliklarga yo'l qo'yilmas edi. Lekin bugungi kunda *programma* so'zi qo'llanilmaydi, uning iste'moliga chek qo'yildi. *Dastur* so'zi uning o'rnini to'liq egalladi.

Ruscha so'zni o'zbek tilidagi so'z bilan almashtirish ishi muhokamalar asosida, birinchi navbatda mutaxassis, olimlarning fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda olib borilyapti va bir necha variantdan biri iste'moli uchun tavsiya etilyapti. Lekin, tan olib aytish kerakki, tavsiyalarimizning hammasi ham ko'ngildagidek, ilmiy-nazariy jihatdan asosli, barcha tomondan birdek qo'llab-quvvatlangan tavsiyalar bo'ldi deya olmaymiz.

Ahvol shu tarzda davom etaveradigan bo'lsa, o'zbek tili terminologiyasining takomillashuviga, rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi shubhasiz. Taziyq va asossiz ravishda ruscha, yevropacha so'zlarning o'zbek tiliga kiritilgani qanday salbiy oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, o'zlashma so'zlarni ilmiy-amaliy jihatdan asossiz holda almashtiraverish ham shunday salbiy oqibatlarga olib kelishi turgan gap.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda ...terminologiya bilan bog'liq barcha muammolarni ilmiy asosda hal etish lozim [5, 46]. Akademik Azim Hojiyevning terminlarni tanlash va tartibga solish haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilgan holda shunday xulosalar chiqarishga to'g'ri keladi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o'zbek terminologiyasi taraqqiyotini yanada yuqori bosqichga olib chiqdi. Mustaqillikning dastlabki o'n yilida terminologiya tizimida terminlarining qo'llanishida har xilliklar, ayrim chalkashliklar yuzaga keldi. Bunday chalkashliklar asta-sekin, termin tanlash mezonlari ishlab chiqilishi bilan bartaraf etib borildi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mamlakatimizning mustaqillikka erishishi o'zbek terminologiyasi taraqqiyotini yuqori bosqichga olib chiqqan. A.Hojiyev qarashlarida terminlardagi lisoniy hodisalar milliy til tabiatidan kelib chiqib izohlangani, terminologiyani milliylashtirishga kirishilgani kuzatiladi.

Tushunchaning ro'yobga chiqishi uchun so'z qanchalik katta rol o'ynasa, to'g'ri tanlangan termin ham tushunchaning yuzaga chiqishida shunchalik muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida terminlarni to'g'ri tanlash va amaliyotga tatbiq etish ishlarida akademik Azim Hojiyevning ilmiy-nazariy qarashlari va terminlarni amaliyotda qo'llash yuzasidan tavsiyalari katta ahamiyat kasb etdi. Olim asosiy e'tiborni termin va tushuncha mutanosibligiga qaratgan.

Har qanday tilning terminologik tizimi rivojlanib borar ekan, unda eskirgan, talabga javob bera olmaydigan terminlar iste'moldan chiqib boradi, ularning o'rniga yangilari paydo bo'ladi. Bu jarayon uzluksiz davom etadi va sinonimiya ham muayyan terminologik tizimning doimiy hamrohi bo'lib qoladi. Shunday ekan, tegishli terminologik tizim tushuncha va termin mutanosibligini saqlagan holda, A.Hojiyev ta'biri bilan aytganda "bir tushunchaga bir termin" tamoyili asosida doimo tartibga solib turilishi kerak bo'ladi.

АДАБИЁТЛАР

1. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 225 с.

2. Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти (умумий ўрта таълим мактабларининг дарсликлари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. док... дисс. – Т., 2019. – 160 б.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-5-жилдлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. I-II томлар. – М.: Русский язык, 1981. I том – 632 б.; II том – 715 б.

5. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Т.: Фан, 1996. – 46 б.

6. Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослик терминологиясининг ҳозирги аҳволи ҳақида / Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. I Республика терминология конференцияси материаллари. – Т.: Фан, 1986. – Б.

Reviewer:
F. G. Sharipov
DSc, Professor
Gulistan State University

AUTHOR(S):

Author – Mamatqulov Azizbek Rustamovich, mamatqulovazizbek006@gmail.com
Corresponding author – Mamatqulov Azizbek Rustamovich, mamatqulovazizbek006@gmail.com